



## O'ZBEK TILINING AHAMIYATI VA TARIXI

Jo'rayev Avazbek Dilshodbek o'g'li

Farg'on'a viloyati yuridik texnikumi o'quvchisi

Telefon: +998908451200

E-mail jurayevxofiz@gmail.com



### **Annotatsiya:**

Ushbu maqolada muallif o'zbek tilining mamlakatdagi o'rni va beqiyosligi haqida qisqacha fikrlar bayon qiladi. Davlat qachonki o'z tilini rasmiy davlat tili deb e'lon qilmaguncha u til obro'siz bo'lib qoladi. Tilning rivojlantirish va tarixini yoshlarga o'rgatish islohatlari bilan bog'liq fikrlar yuritgan.

**Kalit so'zlari:** O'zbekiston Respublikasi davlat tili o'zbek tili deb e'lon qilinganligi, o'zbek tili o'zbeklar orasida qanday ahamiyatga ega bo'lganligi,o'zbek tili qanday til ya'ni qaysi oilaga mansubligi,eng asosiysi uning tarixi. O'zbek tili Turkiy tilligi, qadimgi turkiy tillar orasida o'zbek tili rivojlanishi.

### **Açıklamak:**

Bu makalede yazar, Özbek dilinin ülkedeki yeri ve eşsizliği hakkında kısa düşüncelere yer vermektedir. Devlet kendi dilini resmi devlet dili olarak ilan etmediğinde dil itibarsızlaşır.

**Anahtar kelimeler:** Özbekistan Cumhuriyeti'nin devlet dilinin Özbekçe olarak ilan edilmesi, Özbek dilinin Özbekler arasında önemi nedir, Özbek dili nasıl bir dildir yani hangi aileye aittir, en önemlisi onun tarihidir. Özbek dili Türk dili Özbek dilinin eski Türk dilleri arasındaki gelişimi.

### **Abstract:**

In this article, the author gives brief thoughts about the place and incomparability of the Uzbek language in the country. When the state does not declare its language as the official state language, the language becomes disreputable.

**Key concepts:** The fact that the state language of the Republic of Uzbekistan was declared Uzbek, what is the importance of the Uzbek language among Uzbeks, what kind of language is the Uzbek language, i.e. what family does it belong to, most the main thing is its history. Uzbek language Turkic language development of the Uzbek language among the ancient Turkic languages.

O'zbek tili, dunyo tillari orasida eng qadimgi tillardan biri bo'lib, u turkiy tillar oilasiga mansubdir. Bu oilaga ozarbayjon, turk, turkman, tatar, boshqird, qirg`iz, qoraqalpoq, uyg`ur, qozoq va boshqa turkiy tillar kiradi. O'zbek tili o'zbek xalqining milliy adabiy tili bo'lib, u bir-biridan fonetik, morfologik va leksikxususiyatlari bilan farqlanib turadigan qarluq-chigil-uyg`ur, qipchoq va o'g`uz lahjalari hamda ko'plab katta-kichik shevalardan iborat. Hozirgi o'zbek adabiy tili, eski o'zbek adabiy tilining davomi sifatida XX asrning birinchi choragida qarluq-chigil lahjasining Toshkent va Farg`ona shevalari bazasida shakllandi. Akademik B.Ahmedov o'zbek xalqi O'rta Osiyoning eng qadimiy xalqlaridan biri bo'lib, deyarli uch ming yillik tarixga egaligini aytadi. Anglashiladiki, o'zbek tilining shakllanganligiga ham shuncha bo'lgan. Chunki xalq bilan uning tili bevosita bog'liq bo'ladi. O'zbek xalqi va uning tili turkiy xalqlar oilasiga va tiliga mansub bo'lib, uning shakllanishi turkiy xalqlar va tillarining shakllanish tarixi bilan o'zaro bog'liqdir. Hozirgi shakllangan o'zbek xalqi va uning tili uzoq o'tmishda ro'y bergan murakkab jarayonlarning hosilasidir. O'zbek xalqi etnik jihatdan juda ham murakkab turkiy xalqlardan biridir. Uning shakllanishida to'qson ikki turkiy va turkiy bo'limgan urug'larning ishtirok etgani tarixiy, ilmiy va adabiy asarlarda ko'rsatib o'tilgan. Turkiy tillarning genetik va lisoniy xususiyatlar jihatidan o'zaro munosabati masalasiga qiziqish juda qadimdan davom etib keladi. Bu o'rinda turkiy tillarni birinchi marta tasnif qilgan olim Maximud Koshg'ariy ishlarini qayd etish o'rinnlidir. Turkiy tillar tasnifi bilan qiziqish, ayniqsa, XIX asr oxiri va XX asrda avj oldi va hozirgacha ko'plab tasniflar vujudga keldi.

O'zbek tili tarixiga nazar solinsa, u murakkab shakllanish va rivojlanish bosqichlarini bosib o'tganligiga guvoh bo'lish mumkin. O'zbek tili o'tmishda bir qator qardosh bo'limgan, boshqa til oilasiga mansub tillar bilan ma'lum ijtimoiy-siyosiy sabablarga ko'ra o'zaro aloqada bo'lgan. Mazkur aloqaning





## Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5<sup>th</sup> October, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

ta'sir darajasi va sifatiy ko'rinishi boshqa tizimdagi tillarning har biri bilan turlicha. O'zbek tili aloqada bo'lgan ba'zi boshqa tillar unga, xususan, uning leksik tarkibining o'zgarishiga kuchli ta'sir ko'rsatgan bo'lsa, ayrimlarining esa ta'siri sezilarli emas. Shu nuqtai nazardan, o'zbek tili aloqada bo'lgan boshqa til oilasiga mansub tillarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

1. O'zbek tili, xususan, uning leksik tarkibiga kuchli ta'sir etgan boshqa til oilasiga mansub tillar. Bular fors, arab va rus tillaridir. Mazkur tillardan o'zlashgan so'zlar miqdori ancha ko'p bo'lib, ular o'zbek tili leksikasida alohida-alohida lug'aviy qatlamni tashkil etadi.

2. O'zbek tili leksikasida sezilarli iz qoldirmagan boshqa til oilasiga mansub tillar. Xitoy, hind, grek tillari kabilarni shunday tillar jumlasiga kiritish mumkin. O'zbek tiliga mazkur tillardan sanoqli so'zlargina o'zlashtirilgan bo'lib, ular alohida lug'aviy qatlamni tashkil etmaydi. O'zbek tilida kam uchraydigan bu kabi so'zlar jumlasiga hind tilidan o'zlashgan lak (yuz ming), nilufar, bibi, tovus, mo'ltoni (lo'li); xitoy tilidan o'zlashgan choy, lag'mon, shiypon, jambul; mo'g'ul tiliga tegishli ulus (xalq), mergan, ko'ragan (xon kuyovi); qadimgi yunon tilidan arab tili orqali o'zlashgan marvarid, nomus, fonus, qandil, qonun, zumrad, qaysar kabilarni aytib o'tish mumkin.

Hozirgi davrga kelib O'zbekiston Respublikasi o'z tilini rivojlantirish haqida qonunlar ishlab chiqdi.

O'zbekiston Respublikasining 1989-yil 21-oktabrda davlat tili o'zbek tili deb e'lon qilib ushbu qonundi qabul qildi.

Davlat tilini izchil joriy etish jarayonini takomillashtirish va lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosiga mukammal o'tishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi qaror qiladi:

O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi qonuni

Toshkent shahar. 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son yangi tahrir qilingan.

1-modda.

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

2-modda.

O'zbek tiliga davlat tili maqomining berilishi respublika hududida yashovchi millat va elatlarning o'z ona tilini qo'llashdan iborat konstitutsiyaviy huquqlariga monelik qilmaydi.



3-modda.

O‘zbek tilining O‘zbekiston Respublikasi hududida davlat tili sifatida amal qilishining huquqiy asoslari ushbu Qonun va boshqa qonun hujjatlari bilan belgilab beriladi.

Tilning Qoraqalpog‘iston Respublikasida amal qilishiga bog‘liq masalalar, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasining qonunchiligi bilan belgilanadi.

Ushbu Qonun tillarning turmushda, shaxslararo muomalada hamda diniy va ibodat bilan bog‘liq udumlarni ado etishda qo‘llanishini tartibga solmaydi.

Fuqarolar millatlararo muomala tilini o‘z xohishlariga ko‘ra tanlash huquqiga egadirlar.

4-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilini o‘rganish uchun barcha fuqarolarga shart-sharoit hamda uning hududida yashovchi millatlar va elatlarning tillariga izzat-hurmat bilan munosabatda bo‘lish ta’milanadi, bu tillarni rivojlantirish uchun shart-sharoit yaratiladi.

Fuqarolarga davlat tilini o‘qitish bepul amalga oshiriladi.

5-modda.

O‘zbekiston Respublikasida davlat tilida faoliyat ko‘rsatadigan, milliy guruhlar zinch yashaydigan joylarda esa — ularning tillarida faoliyat ko‘rsatadigan maktabgacha ta’lim tashkilotlarini tashkil etish ta’milanadi.

6-modda.

O‘zbekiston Respublikasida yashovchi shaxslarga ta’lim olish tilini erkin tanlash huquqi beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi davlat tilida, shuningdek boshqa tillarda ham umumiyl, hunar-texnika, o‘rta maxsus va oliy ma’lumot olishni ta’milaydi.

7-modda.

Davlat tili rasmiy amal qiladigan doiralarda o‘zbek adabiy tilining amaldagi ilmiy qoidalari va normalariga rioya etiladi.

Davlat o‘zbek tilining boyitilishi va takomillashtirilishini ta’milaydi, shu jumladan unga hamma e’tirof qilgan ilmiy-texnikaviy va ijtimoiy-siyosiy atamalarni joriy etish hisobiga ta’milaydi.

Yangi ilmiy asoslangan atamalar jamoatchilik muhokamasidan keyin va Oliy Majlis palatalari tegishli qo‘mitalarining roziligi bilan o‘zbek tiliga joriy etiladi.



O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasida ham o'zbek tiliga alohida modda qabul qilgan.

4-modda.

O'zbekiston Respublikasining davlat tili o'zbek tilidir.

O'zbekiston Respublikasi o'z hududida istiqomat qiluvchi millat va elatlarning tillari, urf-odatlari va an'analari hurmat qilinishini ta'minlaydi, ularning rivojlanishi uchun sharoit yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi o'z tilini himoyasi sifatida Konstitutsiyasida aniq belgilab qo'ydi.Ushbu qonundi buzushlik Jinoyatgacha olib kelishi nazarda tutgan.

So'zimiz yakunida aytish mumkinki, davlatimiz o'zining konstitutsiyada belgilangan normalardan, jumladan o'zining tili "o'zbek tili " rivojlanishi bilan birga himoya vositalarini ham kuchaytirganligi bu juda quvonchlidir. Xalqimiz judda ham yaxshi ko'rib g'urur bilan o'zbek tilida so'zlashadilar.O'zbek tili judda ham murakkabligi, o'ziga xosligi, alohida o'rinn olganligi xalqimizni shod etadi. Davlatimiz har yilning 21-oktyabrida o'zbek tili bayramini nishonlashga sharoit yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Saidov Yoqub. O'zbek adabiy tili tarixi o'quv qo'llanma "Sadriddin Salim Buxoriy" Durdona nashriyoti, 2019. 13-14-22 b.
2. O'zbekiston Respublikasining davlat tili to'g'risidagi qonuni
3. Toshkent shahar. 1995-yil 21-dekabr, 167-I-son yangi tahrir
4. qilingan. <https://lex.uz/>
5. O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi 30.04.2023.